



NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNING NUTQIY VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Axmedova Zuxra

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Logopediya kafedrası dotsenti, p.,f.,n.*

Xudaybergenova P.K

Logopediya yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya Ushbu maqolada nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi keltirilgan. Ushbu nutq nuqsoniga ega bolalarning oliy psixik funksiyalari holatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishning dolzarbligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: nutqning to‘liq rivojlanmaganligi, psixologik-pedagogik tavsif, diqqat, xotira, fikrlash jarayonlari, ekspressiv, impressiv.

Аннотация В данной статье представлена психолого-педагогическая характеристика детей с недоразвитием речи. Показана актуальность учета особенностей состояния высших психических функций у детей с данным речевым нарушением.

Ключевые слова: общее недоразвитие речи, психолого-педагогическая характеристика, внимание, память, мыслительные процессы, импрессив, экспрессив.

Annotation This article presents a psychological and pedagogical characterization of children with speech impairment. The relevance of taking into account the peculiarities of the state of higher mental functions in children with this speech disorder is shown.

Key words: general underdevelopment of speech, psychological and pedagogical characteristics, attention, memory, thinking processes, impressive, expressive.

KIRISH. Bugungi kunda jahon ta‘lim tizimining rivojlanishi dinamikasi ta‘lim jarayonini tashkil etish, bolaning mustaqil shaxs sifatida erkin faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida bir qator muhim izlanishlar olib borish, jiddiy qadamlar qo‘yishni taqozo qilmoqda.

Nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to‘g‘ri va lug‘ati boy bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilishi shunchalik oson bo‘ladi, atrof –olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o‘z tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabati to‘liq va mazmunli bo‘ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bir necha yillar davomida turli darajadagi nutqning to‘liq rivojlanmaganligini o‘rganish muammosi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi V.K.Vorobyova, V.P.Gluxov, N.S.Jukova, V.A.Kovshikov, R.Ye.Levina, Ye.M.Mastyukova, T.A.Tkachenko, T.V.Tumanova, T.B.Filicheva va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi birinchi marta XX asrning 50-60-yillarida professor R.Ye.Levina va uning hamkasblari tomonidan ilmiy asoslandi.

Tadqiqotchilar logopediya rivojlanishining zamonaviy bosqichida nutq buzilishlarini klinik-pedagogik va psixologik-pedagogik tasniflarning kesishishini hisobga olgan holda ko‘rib chiqadilar. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, bu ikki tasnif bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiradi.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning, me‘yorda rivojlanayotgan tengdoshlaridan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarni ta’kidlash mumkin: ularda birinchi so‘zlarning, sodda gaplarning kech paydo bo‘lishi; nutqning kuchli agrammatizm tufayli atrofdagilar uchun tushunarsizligi; cheklangan leksik zaxira; fonema hosil qilish jarayonining tugallanmaganligi; ham ekspressiv, ham impressiv nutqning orqada qolishi; nutq faolligining yetarli emasligi.

Nutqiy faoliyatning to‘liq shakllanmaganligi sezgi, aqliy, hissiy-irodaviy sohalar rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Turli idrok turlarining beqarorligi kuzatiladi. Diqqatning barqarorligi pasayadi, xotira hajmi cheklanadi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar uchun 3-4 bosqichli og‘zaki ko‘rsatmalar va vazifalarni bajarish ketma-ketligini eslab qolish qiyin bo‘ladi.

Nutqi to‘liq rivojlanmaganligining birinchi darajasida mustaqil iborani bilmaydigan, o‘ziga qaratilgan nutqni tushunishda aniq qiyinchiliklarga duch keladigan, og‘zaki muloqotni keskin cheklangan hajmda amalga oshiradigan bolalarni qamrab oladi. Bu darajaning psixologik-pedagogik xususiyatlari quyidagicha namoyon bo‘ladi. Nutqi to‘liq rivojlanmaganligining birinchi darajasi avvalo, kundalik nutqning bo‘lmasligi bilan tavsiflanadi. Bunday bolalar mustaqil muloqot jarayonida gaplardan foydalanmaydilar, ularning bog‘lanishli nutqi shakllanmagan bo‘ladi. Nutqiy tovushlarga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo‘ladi. Nutqiy taqlidning murakkab va uzoq vaqt davomida bo‘lmasligi nutq dizontogenezinining yorqin xususiyati hisoblanadi. Ayrim bolalarda ota-onalarning yordami bilan ayrim tovushlarni kattalardan keyin takrorlash qobiliyati hosil bo‘lishi mumkin, lekin bu qobiliyat ularni eng yengil so‘zlarga birlashtirishga butunlay qodir emas. Ko‘pincha bola faqat o‘zi dastlab o‘zlashtirgan so‘zlarni (besh-o‘nta nomni) takrorlashi mumkin, lekin unda yangi tushunchalar va ularning so‘z bilan ifodalanishi shakllanmaydi. Bunday hodisa bola hayotining bir necha yillari davomida sodir bo‘lishi mumkin. Eshitish qobiliyati va intellekti me‘yorda bo‘lgan bolalarda bunday holat psixonevrolog shifokorlar tomonidan elektiv mutizm sifatida tashxislanadi. Atrofdagi odamlarda ko‘pincha bunday bola nutqni yetarli darajada tushunadi, degan noto‘g‘ri taassurot paydo bo‘ladi, chunki u oddiy og‘zaki ko‘rsatmalarni bajaradi: aytiladigan predmetni, harakatni va hokazolarni ko‘rsatishi mumkin. 4-6 yoshli bolalarning so‘z boyligi kam bo‘lib, noaniq bo‘ladi. Bu darajadagi bolalar bilan gaplashganda quyidagi

kamchiliklar kuzatiladi: ekspressiv nutqning o‘ziga xos xususiyati cheklangan til vositalarining ko‘p maqsadli qo‘llanilishi hisoblanadi. Bola nutqida alohida so‘zlar bilan bir qatorda paralingvistik aloqa vositalari, ya’ni mimika, imo-ishoralar, turli intonatsiyalar bilan nutqni qo‘llab-quvvatlash paydo bo‘ladi. Impressiv nutq jarayonida bolalar asosan bir-ikki bo‘g‘inli so‘zlarni takrorlay oladilar, murakkabroq so‘zlarni esa qisqartiradi. Mustaqil nutqida tovushlar talaffuzidagi beqarorlik, ularning tarqoqligi kuzatiladi. Bu esa murojaat qilingan nutqni idrok etishning rivojlanishini to‘ldiruvchi vazifasini o‘taydi. Bu bolalarda nafaqat alohida so‘zlar, balki so‘z o‘zgartirish ko‘nikmalarining yo‘qligi bilan tavsiflanadigan dastlabki so‘z birikmalari ham paydo bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga so‘z boyligi haddan tashqari cheklangan bo‘lib, bunday bolalar predmet va harakatlarning nomlarini bilmaydilar, ularni bir-biri bilan almashtiradilar, ularni bir so‘z bilan ataydilar. Passiv lug‘atda faol lug‘atga qaraganda ko‘proq so‘zlar mavjud bo‘lib, so‘zning grammatik o‘zgarishlari ma’nosini tushunmaslik bilan xarakterlanadi. So‘zlarning bo‘g‘in tuzilishini idrok etish va qayta tiklash qobiliyatlari cheklangan bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Nutqi to‘liq rivojlanmaganligining ikkinchi darajasida oddiy grammatik gaplarni tuzish bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, atrofdagilar nutqini tushunishda sezilarli qiyinchiliklarga ega bo‘lgan, faqat birlamchi leksik-grammatik va boshqa og‘zaki muloqot vositalaridan foydalanadigan bolalarni tavsiflaydi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bu darajadagi dastlabki ko‘p qo‘llaniladigan odatdagi nutqning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bolalar sodda gaplardan foydalanadi, ma’lum so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Ba’zan bolalar mustaqil nutqda faqat sodda qo‘shimchalardan foydalanishlari mumkin. Bolalarda tilning morfologik tizimini, ya’ni so‘z yasash ko‘nikmalarini amaliy o‘zlashtirishi keskin chegaralanganligi sababli, nutqi to‘liq rivojlanmaganligining ikkinchi darajasi bo‘lgan bolalar faol nutqda noto‘g‘ri qo‘llashi va harakatlanuvchi shaxs ma’nosiga ega bo‘lgan qo‘shimchalarni, nisbiy va egalik sifatlarini qabul qilishi mumkin. Bu bolalar sinonim, antonim, umumlashtiruvchi va mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Bolalar hali ham so‘zlarni ko‘p ma’noli ishlatishadi, semantik almashtirishlarga yo‘l qo‘yishadi. Bunda so‘zlarning tor ma’noda qo‘llanilishi kuzatiladi, ya’ni bolalar kattaligi, shakli, vazifasi, vazifasiga ko‘ra o‘xshash so‘zlarni aynan bir so‘z bilan atashadi. Bolalar cheklangan miqdordagi so‘zlardan foydalanadilar, umumlashtiruvchi so‘zlarni: hayvonlar, idish-tovoq, tana qismlari, transport, buyum qismlari va hokazolarni bildiruvchi so‘zlarni bilmaydilar. Lug‘at boyligining cheklanganligi nafaqat faol nutqda, balki narsalarning belgilarini, ularning rangini, shaklini, ular tayyorlangan materialni bildiruvchi so‘zlarni tushunishda ham namoyon bo‘ladi.

Nutqning tovush talaffuzi tomonida tovushlarning ko‘pdan ko‘p buzilishi, almashtirish va aralashtirishlar ko‘p uchraydi. Tovushlarni me’yorda talaffuz qilish qobiliyati bilan ularni mustaqil nutqda qo‘llash o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik bo‘lmaydi. Sodda so‘zlarda bolalar bo‘g‘inlarni almashtiradi, ularning o‘rnini bosadi, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar qisqaradi, fonematik idrokning shakllanmaganligi, tovush tahlili va sintezini o‘zlashtirishga tayyor emasligi,

murojaat nutqini yetarli darajada tushunmaslik kuzatiladi. Bolalar mustaqil nutqida qo‘pol grammatik xatolar kuzatiladi, bosh kelishikda otlarni qo‘llaydilar, kelishik shakllarini aralashtirib yuboradilar, fe‘llarni infinitiv yoki hozirgi zamon birlik va ko‘plik 3-shaxs shaklida qo‘llaydilar; sifatlarni otlar bilan, sonlarni otlar bilan muvofiqlashtirishda qiynaladilar, faqat sodda ko‘makchilar qo‘llaniladi, bog‘lovchilar va qo‘shimchalar juda kam qo‘llaniladi.

Nutqi to‘liq rivojlanmaganligining uchinchi darajasida leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan to‘liq rivojlanmagan elementlar bilan ifodalangan kengaytirilgan ibora nutqining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu darajadagi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi. Bolalar mustaqil nutqda gaplardan foydalanadilar, ammo fonetika, lug‘at va grammatikaning aniq rivojlanmagan elementlari mavjud bo‘ladi. Bolalarda asosan qo‘shma gaplar (qo‘shma va ergashgan qo‘shma gaplar) tuzilmalarini qo‘llashga harakat qilish holatlari kuzatiladi. Nutqning rivojlanmaganligi bolalar gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini tushirib qoldirishi yoki joyini o‘zgartirishi, ya‘ni gap tuzilishini buzishi bilan namoyon bo‘ladi. Uchinchi darajali bolalar nutqida uch-besh bo‘g‘inli so‘zlar paydo bo‘ladi, ya‘ni bo‘g‘in tuzilishi murakkablashadi. Shu bilan birga, mustaqil nutqda odatiy qiyinchiliklar turli bo‘g‘inlar bilan to‘ldirilgan so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, bolalar bo‘g‘inlarni almashtirishi, ortiqchalarini qo‘shishi yoki tushirib qoldirishidir. Nutqning fonetik tomoni yetarli darajada shakllanmaganligini ta‘riflar ekanmiz, sirg‘aluvchi va shovqinli, sonor, jarangli va jarangsiz undoshlarni takrorlashda turli xil xatolar mavjudligini ta‘kidlash muhimdir. Nutqning tovushlar talaffuzida bolalar ko‘plab tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladilar, idrok jarayonida ularni farqlay olmaydilar.

Fonematik idrok buziladi, bu tahlil va sintezning buzilishida namoyon bo‘ladi: bolalar birinchi va oxirgi tovushni ajratish bo‘yicha ko‘rsatmalarni bajarishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar, berilgan tovushga rasmni tanlay olmaydilar, berilgan tovushga so‘zni o‘ylab topolmaydilar va hokazo. Bolalarda so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish ko‘nikmalarining shakllanmaganligi kuzatiladi, ayniqsa, kundalik nutq amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lmagan so‘zlarni yasashga harakat qilganda; ularning so‘zlari turg‘un va qo‘pol o‘ziga xos nutq xatolari bilan tavsiflanadi. Bolalar notanish nutq materialida so‘z yasash ko‘nikmalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Bu darajadagi bolalar uchun umumlashtiruvchi tushunchalarni, ko‘chma va mavhum ma’noli so‘zlarni noaniq tushunish xos, lug‘at zaxirasi me’yorga mos kelmaydi, faol nutqda ko‘plab leksik o‘zgarishlar kuzatiladi.

Nutqi to‘liq rivojlanmaganligining to‘rtinchi darajasida til tizimining leksik-grammatik va fonetik-fonematik komponentlari elementlarining to‘liq rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Bunday bolalarning nutqi faqat bir qarashda nisbatan yaxshi taassurot qoldiradi. Maxsus tanlangan topshiriqlardan foydalangan holda sinchkovlik bilan tekshirilganda nutqning barcha tomonlarini shakllantirishning tugallanmaganligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

T.B.Filicheva nutqining to‘liq rivojlanmagan bolalarga logopedik yordam ko‘rsatishning ko‘p yillik tajribasi ma’lumotlaridan foydalangan holda, nutq rivojlanishining yangi, to‘rtinchi darajasini ajratib ko‘rsatishni va til tizimining leksik-grammatik va fonetik-fonematik

komponentlarining to‘liq rivojlanmaganligi sababli nutqning to‘liq rivojlanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lgan bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligini aniqlashni taklif qildi. Nutq rivojlanmasligining ushbu darajasini ajratib ko‘rsatish uchun diagnostik mezon bo‘lib, umuman, sog‘lom nutq sharoitida murakkab bo‘g‘inli so‘zlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar, ularning tovush bilan to‘ldirilishi, ya‘ni tovush-bo‘g‘inli tarkibni shakllantirish jarayoni tugallanmaganligi hisoblanadi. Bu darajadagi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi. Bolalarning mazkur toifasi uchun tovushlarning noaniq artikulyatsiyasi, yomon diksiya, ifodali bo‘lmagan, yetarli darajada talaffuz qilinmagan, buzilgan nutq xosdir. Fonematik idrok yetarli darajada shakllanmagan, bundan tashqari, nutqning semantik tomoni buzilgan, bolalar maishiy nutq bilan bog‘liq bo‘lmagan so‘zlarni noto‘g‘ri tushunadilar, leksik va grammatik xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bu hodisalar fonemalarni farqlashning murakkabligi bilan bir qatorda, umuman fonema hosil qilish jarayonlarining tugallanmaganligini ko‘rsatadi.

Nutq rivojlanishining IV-darajasi bo‘lgan ko‘plab bolalarda bir qator holatlarda maktabda o‘qishga motivatsion tayyorgarlikning pastligi, optik-fazoviy munosabatlarning yetarli emasligi, diqqatning beqarorligi, xotiraning cheklanganligi, ish qobiliyatining pasayishi, tez charchash kuzatiladi.

R.M.Boskis, R.Ye.Levina va N.A.Nikashinalarning ta’kidlashicha, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda nafaqat nutq, balki u bilan bog‘liq yuqori psixik funksiyalar ham zarar ko‘radi. Bular qatoriga diqqat, turli xil idrok, ko‘rish-fazoviy tasavvurlar, optik-motor koordinatsiyasi, xotira va tafakkur kiradi. Bundan tashqari, bunday bolalarda qo‘l barmoqlarining mayda motorikasi ham yetarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi.

R.Ye.Levinaning fikricha, nuqsonlarning tabiati har xil bo‘lishiga qaramay, bu bolalarda nutq faoliyatining tizimli buzilishini ko‘rsatuvchi tipik ko‘rinishlar mavjud. Yetakchi belgilardan biri nutqning eng kech boshlanishi hisoblanadi: birinchi so‘zlar 3-4 yoshda, ba‘zan esa 5 yoshda paydo bo‘ladi. Nutq agrammatik va fonetik jihatdan yetarlicha shakllanmagan, tushunarsiz. Bir qarashda murojaat qilingan nutqni nisbatan yaxshi tushunishda ekspressiv nutqning orqada qolishi eng ifodali ko‘rsatkich hisoblanadi.

G.V.Chirkinaning fikricha, bolalarda diqqat beqaror va ixtiyoriy diqqat sust shakllanadi. Bolalar bir narsaga e’tiborini jamlashda va maxsus topshiriq asosida boshqa narsaga o‘tishda qiynaladilar. Fikrlash jarayonlarining kechishida o‘ziga xos xususiyatlar kuzatiladi: ko‘rgazmali-obrazli tafakkur ustunlik qilsa-da, bolalar mavhum tushunchalar va munosabatlarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Fikrlash jarayonlarining tezligi biroz sekinlashgan bo‘lishi mumkin.

N.S.Jukova, Ye.M.Mastyukova, T.B.Filichevalarning ta’kidlashicha, nutqning to‘liq rivojlanmagan bolalarda nafaqat nutq, balki boshqa yuqori psixik funksiyalarning shakllanishida, xususan, diqqat, xotiraning buzilishlarida ham buzilishlar mavjud. Bu tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, nutqning to‘liq rivojlanmaganligida idrok, verbal xotira, ixtiyoriy diqqat va boshqa yuqori psixik funksiyalar buziladi.

Ma'lumki, to'liq bo'lmagan nutqiy faoliyat bola shaxsining barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu nutq nuqsonida nutqning barcha turlari to'liq rivojlanmaganligi sababli bolalarda kognitiv sohaning rivojlanishi qiyinlashadi, mantiqiy va semantik xotira buziladi, eslab qolish, fikrlash operatsiyalari mahsuldorligi pasayadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, nutqida umumiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish maxsus psixologiya, xususan, logopsixologiya sohasidagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Nutqning to'liq rivojlanmaganligini o'rganishda psixologik-pedagogik yondashuv nutq nuqsoni tuzilishini tahlil qilish va nafaqat boladagi nutq buzilishlarini, balki kognitiv, hissiy-irodaviy va umuman shaxs sohasidagi buzilishlarni aniqlash imkonini beradi.

N.S.Jukova, Ye.M.Mastyukova va T.B.Filichevalarning ta'kidlashicha, nutqning to'liq rivojlanmaganligida fikrlash jarayonlarining sekinlashuvi kuzatiladi, barcha fikrlash operatsiyalari aziyat chekadi, bosh miya po'stlog'ining butun analitik-sintetik faoliyatining yetarli emasligi kuzatiladi. Olimlar qayd etishlaricha, bu toifadagi bolalarning psixologik holatida hissiy-irodaviy sohada buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat barcha tashqi ta'sirlarga nisbatan o'ta sezgirlik va yuqori qo'zg'aluvchanlikda namoyon bo'ladi. Buzilishlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalarda sustlik, nafaollik, tashabbussizlik kuzatiladi, boshqalari uchun esa bezovtalik, hovliqmalik, harakatning bo'shashganligi xarakterlidir.

Maxsus psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, R.Ye.Levina, Ye.M.Mastyukova, N.S.Jukova, T.B.Filicheva, V.P.Gluxov, V.A.Kovshikov, V.K.Vorobyova, T.V.Tumanova, T.A.Tkachenko va boshqa ko'plab olimlar bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligi nutq nuqsonida tadqiqotlar olib borishgan. Umuman olganda, nutqning to'liq rivojlanmagan barcha bolalarga quyidagi o'ziga xos xususiyatlar xosdir: birinchi jumlar, so'zlarning kech paydo bo'lishi; nutqning leksik va grammatik tuzilishining shakllanmaganligi, nutqning fonetik-fonematik tomonining rivojlanmaganligi, bog'lanishli nutqni egallashda

XULOSA. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi nutqdan tashqari funksiyalarning holatiga, bolalarning bilish sohasi va faoliyatiga, his-tuyg'ulari va irodasiga, umuman, butun shaxsning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olimlar nutq buzilishlari va nutqning to'liq rivojlanmaganligi bilan bolalar psixik rivojlanishining boshqa jihatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadilar, bu esa barcha yuqori psixik funksiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Nutqida umumiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik o'rganish nutqida nuqsonlar va barcha oliy psixik funksiyalarni bartaraf etish bo'yicha korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ushbu nutq patologiyasi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini va ularning keyingi ijtimoiylashuvini ta'minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent, 2019.

2. Никашина Н.А. Формирование речи при ее недоразвитии // Логопедия. Методическое наследие: пособие для логопедов и студ. дефектол. фак. пед. вузов / под ред. Л.С. Волковой. Кн. 5. М.: ВЛАДОС, 2005.
3. O‘mirbekova Q.Q., Orazayeva G.S., To‘lebiyeva G.N., Ibatova G.B. Logopediya. – Almata, 2011.
4. Ефименкова Л.Н. Формирование речи у дошкольников: (Дети с общим недоразвитием речи): пособие для логопедов. – М.: Просвещение, 2001.
5. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В. Формирование лексики и грамматического строя у дошкольников с общим недоразвитием речи. СПб.: Изд-во «Союз», 2001.
6. Филичева Т.Б., Туманова Т.В. Дети с общим недоразвитием речи. Воспитание и обучение: учебно-методическое пособие. – М.: Издательство «Гном и Д», 2000.